

**SOMONIYLAR DAVLATI TARIXINI O'RGANISHDA TARIXIY MANBALARNING
O'RNI VA AHAMIYATI**

Namangan Davlat Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi
To'xtasinov Mira'zam Abdujabbor o'g'li

Annotatsiya Ushbu maqolada Somoniylar davlati tarixini ochib berish uchun muhim ma'lumotlar berib o'tilgan tarixiy manbalar, ularning mualliflari va shu asarlarda Somoniylar davlatining siyosiy tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Siyosatnoma, Mafotih ul-ulum, Al komil fit-tarix, Tarix ar-rasul val muluk, Zayin ul-axbor, Tarixi guzida, Tarixi Muborakshoh, Tarixi Oli Mahmud, Tarixi Mas'udiy, Bahrul-ulum, Ravzat us-safo.

Abstract In this article, the historical sources, their authors, and the political system and socio-economic life of the Somani state, which provide important information for revealing the history of the Somani state, are cited in these works.

Key words: Bukhara, Politics, Mafatih ul-ulum, Al komil fit-tarikh, Tarikh ar-rasul wal muluk, Zain ul-akhbar, Tarikh guzida, Tarikh Mubarakshah, Tarikh Oli Mahmud, Tarikh Mas'udi, Bahrul-ulum , Ravzat us-safo.

Абстрактный В данной статье приводятся в этих произведениях исторические источники, их авторы, а также политическая система и социально-экономическая жизнь Соманского государства, дающие важные сведения для раскрытия истории Соманийского государства.

Ключевые слова: Бухара, Политика, Мафатих ул-улум, Аль комил фит-тарих, Тарих ар-расул валь мулук, Зайн ул-ахбар, Тарих Гузида, Тарих Мубаракшах, Тарих Оли Махмуд, Тарих Масуди, Бахрул-улум, Равзат ус-сафо.

Somoniylar davlati qariyb bir asrdan ortiqroq O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan markazlashgan davlatlardan biri hisoblanadi. IX-XII asrlarda mavjud davlatlarning deyarli ko'pi faqat boylik ortirish va mamlakat hududlarini kengaytirish bilan cheklanganlar. Somoniylar davlati esa siyosiy masalalar bilan bir o'rinda ilm-fan va ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratganlar. Buning yorqin misoli tariqasida shu davrda yaratilgan tarixiy manbalarni ko'pligi fikrlarimizning yorqin dalilidir.

Jumladan birgina Narshaxiyning "Tahqiqi viloyati Buxoro" ya'ni "Buxoro tarixi" asarida Somoniylar davlatining qariyb barcha hukmdorlari, davlatning ijtimoiy-siyosiy va ma'daniy hayoti haqida juda ko'plab aniq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu asar Somoniylar davlatini tarixini o'rganishda eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu asar muallifi hisoblangan Narshaxiy Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Narshax qishlog'ida tug'ilgan (899-959-y) [1], Somoniylar saroyida kotiblik lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Narshaxiy 943-944 yillarda "Tahqiqi viloyati Buxoro" nomli asarini arab tilida yozib, uni Somoniylar hukmdori Nuh ibn Nasrga (943-954) bag'ishlagan.[2] Narshaxiyning o'g'li Abu Bakr Mansur va nevarasi hadisshunos olim Abu Rafi al-Ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja'far asarni arab tilida davom ettirishib Somoniylar hukmdor Mansur ibn Nuh (997-999), ya'ni so'ngi hukmdor davrigacha asarni to'ldirib borishgan. Bu asar asosan, O'rta Osiyoda arablar istilosiga natijasida islom dining tarqalishi VIII asr va undan bevosita oldingi davrlarda yuz bergen voqealar hamda IX-XII asr asarlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumot va dalillarni o'z ichiga olgan bu asar "Buxoro tarixi"ning qimmatli manbasi sifatida talqin etiladi. Narshaxiyning ushbu asari 36 bobdan iborat. [3] Asar o'z vaqtida, shubhasiz Buxoro jamiyati e'tiborini tortgan. Bu haqda Kubaviy o'z asarining muqaddimasida yozarkan, umumiyligi qiziqishga ega bo'lgan ko'plab shaxslar asarga takror qaytishardi, deydi. Somoniylar Nuh uchun yozilgan "Buxoro tarixi" asari muallifi o'z kitobini Somoniylar hukmronligi davrini Buxoroning eng gullagan davri bilan bog'laydi.

Yuqorida ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, Narshaxiy o'z asari orqali Somoniylar davlatining dastlabki davrlari Somonxudotlarning kelib chiqishidan toki Ismoil Somoniyni rasmiy ravishda markazlashgan Somoniylar davlatiga asos solishi va Somoniylar davlatining inqirozi va parchalanib ketishi sabablari, oqibatlarini juda mohirona tarzda yoritib bergen. Shu bilan bir qatorda 782-831 yillarda bunyod etilgan Kanpirak devorini Somoniylar davriga kelib o'z ahamiyatini yo'qotishi sabablari haqida ham ma'lumotlar berilgan. [4] "Buxoro tarixi" asarida Somoniylar davlati haqida keltirilgan barcha ma'lumotlar ilmiy tadqiqotchi olimlar tomonidan hozirgi zamonda ilmiy-tarixiy adabiyotida boshqa yozma manbalar hamda ilmiy izlanishlar xususan, arxeologik, topografik, etnografik va boshqa manbalardan topilgan ma'lumotlar bir qator tarixiy materialllar bilan solishtirib, ilmiy dalillar asosida isbotladilar.

Somoniylar davri tarixi yoritilgan manbalardan yana biri bu Abu Abdulloh

Xorazmiyning “Mafotih ul-ulum” (Ilmlar kaliti) asari hisoblanadi. Ushbu asar

976-991-yillarda yozilgan o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'zi yashagan davrni

X-XI asrlarda yuz bergan tarixiy jarayonlarni yoritib bergan. Bu asarda Somoniylar davridagi diniy masalalar haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Jumladan kalom ilmi va islom huquqshunosligi haqida aholining diniy va dunyoviy qarashlari haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek Abu Abdulloh Xorazmiy o'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li bilan tushuntirib bergan. Manbalarda keltirilishicha olim asli Xorazmlik bo'lib Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansurning (976-997) vaziri Abul Hasan Utbiy huzurida kotib lavozimida faoliyat olib borgan. Uning kotiblik davrida saroy nufuzi o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan. Shu boisdan uni “Kotib Xorazmiy” deb ham ataganlar. Uning nomi ayrim tarix manbalarda Abu Abdulloh Xorazmiy, ba'zi manbalarda esa “Kotib Xorazmiy” nomi bilan ham uchraydi. Uning mashhur asari hisoblangan “Mafotih ul ulum” asarining to'rt nusxasi mavjud deb hisoblanib kelinar edi. Ushbu to'rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. XX asrning 60-yillariga kelib ushbu asarning yana oltita nusxasi borligi aniqlandi. Hozirgi kunga kelib “Mafotih ul ulum” asarining oltita nusxasi Istanbul shahridagi kutubxonada saqlanadi. [5]

Ibn al-Asirning “Al komil fit-tarix” asari ham Somoniylar davri haqida ma'lumot beradigan eng qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda Somoniylar davlati va Tohiriylar davlati o'rtasidagi siyosiy jarayonlar yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda Somoniylar hukmdorlarning hukmronlik faoliyati, ularni Somoniylar davlati tarixida tutgan o'rni, o'zaro kurashlarga barham berish jarayonlari yoritib o'tilgan. [6] “Al komil fit-tarix” (Tarix bo'yicha mukammal asar) 12 jildan iborat bo'lib, unda Islom olamida insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlab 1230-yilgacha bo'lgan voqealar, xususan Xuroson va Mavarounnahrning XII asr va XIII asrning 1-choragida yuz bergan tarixiy jarayonlar yilma-yil bayon

qilingan. Bu asarning tanqidiy matni 1851-1876 yillar mobaynida Leyden shahrida

(Niderlandiya) va 1873-yilda esa Misrda nashr etilgan.

Abu Ja'far Muhammad Jarir at-Tabariyning (839-923) “Tarix ar-rasul val muluk” (Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asari ham juda qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Islom tarixchisi va ilohiyotchisi, jarriya mazhabining [7] asoschisi hisoblanib, uning ushbu asari Qur'on tafsiri va islom fiqhshunosligiga bag'ishlangan. Arab tarixiy adabiyotida u “musulmon tarixshunosligining otasi” sifatida birinchi o'rinnlardan birini egallaydi. At-Tabariyning “Tarix ar-rasul val-muluk” asari “Tarixi Tabariy” nomi bilan mashhur. Ushbu asarida dunyo yaratilishidan toki IX asrgacha bo'lgan umuminsoniy tarix yoritilgan bo'lib, islom tarixshunosligining eng yirik asaridir. Bu qimmatli asar 914-yilda yakunlangan. Asarda shuningdek, xalifalik hududidagi yurtlar xususan, Xuroson va Mavarounnahrning tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. Asar Turkiston xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi kurashi va qo'zg'oloni Buxoro, Vardona, Samarcand va Farg'onadagi janglar, Abu Muslim harakati, Muqanna qo'zg'oloni, Rofe ibn Lays qo'zg'oloni ham ko'rsatilgan. Asarning to'liq matn saqlanib qolmagan, muallifning qisqartmasi bizgacha yetib kelgan. Hoji-Xalfanining yozishicha, “Tarixi Tabariy” dastlab 30 ming varaqdan iborat bo'lgan. Ushbu asar 936-yili Somoniylarning donishmand va ma'rifikatparvar va'ziri Bal'amiy tomonidan dariy-forsiy tilga tarjima qilib, Somoniylar davri tarixiga oid siyosiy jarayonlar haqida ma'lumotlarni qo'shib, ushbu asarni “Tarixi Tabariy” deb atadi.

Faxriddin Muborakshoh Marvarudiyning “Tarixi Muborakshoh” (XII asr 2-yarmi XIII asr boshlarida yashagan) asari 136 qismdan (shajara) iborat bo'lib, unda payg'ambarlar tarixi, xalafayi Roshidin (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali), ansorlar, sahobalar, Suriya hukmdorlari, Yaman podsholari, G'assoniylar, arablarning “johiliyat davri” [8], ya'ni islomiyatdan avval o'tgan shoirlar, sahobalar orasidan chiqqan shoirlar, Ajam podsholari (Peshdodiylar, Kayyoniylar, Ashkoniyar, Sosoniylar), Ummaviylar, Abbosiylar, Tohiriyar, Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va G'uriylar tarixi bayon etilgan. Asarning biz uchun qimmati jihat shundaki, unda Turkistonning sarhadlari va Turkistonda ishlab chiqariladigan mahsulot va matolar, ularning xorijiy mamlakatlarda e'tibor qozongan navlari, turk qabilalari va urug'lari, ularning tili va madaniyati, yozuvlari, urf-odatlari haqida boy daliliy ma'lumotlar keltiriladi. [9]

Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy (1018-1092) ya'ni Nizomulmulk (mulkning nizomi, tartibi) Saljuqiylar davlatida vazirlik lavozimini egallab deyarli mamlakatni hamma siyosiy masalalarini o'zi mustaqil tarzda olib borgan yirik davlat arbobi. Davlatni idora qilish masalalariga bag'ishlangan

“Siyosatnoma” (Siyar al-muluk-Podsholar hayoti) nomli asari bilan nom qoldirgan. Bu asar 51 bobdan iborat bo'lib, unda markaziy davlat apparatining tuzilishi va moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shining tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartibi, qabul marosimlari va ularni tayyorlash hamda o'tkazish tartibi, mansabdorlarning faoliyati ustidan nazorat qilish kabi umumdavlat masalalari juda mukammal tarzda yoritib berilgan. Asarda O'rta Osiyo va O'zbekiston tarixi haqida ham muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Somoniylar davrida turk g'ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'mni, Qoraxoniylar saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlarning unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017-1032) bilan Sulton Mahmud G'aznaviyning vaziri Ahmad ibn Hasan o'tasidagi yozishmalar haqida ham juda qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Asarda bundan tashqari karmatlar (qarmatlar-ismoiliylar harakatlarining tarafдорлари). Bu nom harakat asoschisi Hamdon ibn al-Asha'sining nomidan kelib chiqqan) botiniylar harakati, [10] Muqanna qo'zg'oloni (769-783 yillarda arablarga qarshi ko'tarilgan milliy ozodlik harakati) haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ma'lumotlarga qaraganda Nizomulmulk 1092-yilda vafot etadi. Uning asari davlat boshqaruvi uchun mukammal dasturamal hisoblanadi.

Abu Lays Nasr ibn Muhammadning (911-1003) asarlaridan Somoniylar davlatidagi diniy masalalar haqida qimmatli ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Bahrul - ulum” (Ilmlar ummoni) asari Xuroson va Movorounnahrda yaratilgan ilk islomiy asar bo'lib, tafsir ilmining asosi sifatida baholanadi. [11] Tarixiy manbalarda allomaning ilmiy faoliyati sermahsul kechgani, uning 40 dan oshiq nomda asarlar yaratgani haqida ma'lumotlar mavjud. Tadqiqotchilar fikrlariga ko'ra, bu asarlarning 19 tasi fiqhga, ya'ni islam qonunlari va qonunshunosligiga bag'ishlangan. Alloma hayotda va ilmda o'zi uchun adolat va haqqoniylikni bosh mezon qilib olgan. Bu xususda asarlaridan birining so'zboshisida “Samarqandda 40 yil fatvo berdim. Ushbu 40 yilda ilgari o'tgan allomalarning hayotda amaliy ifodasini topgan so'zlariga amal qildim” Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Abu Lays Nasr ibn Muhammad Somoniylar davrida Samarqanda qozi sifatida faoliyat olib borgan va shariat qoidalari asosida faoliyat olib borgan. Alloma mashhur mutafakkir Abu Mansur Moturiyi bilan bir davrda yashagan. Unga munosib shogird bo'la olgan. Shuning uchun uning ham Abu Lays Nasr ibn Muhammadning qabri Chokardiza qabristonida Abu

Mansur Moturidiy qabri yaqinida bo'lgan. Keyingi yillarda Chokardiza qabristoni o'rnida Abu Mansur Moturidiy ziyoratgohining tiklanishi uning shogirdi Abu Lays Samarqandiyga ham ko'rsatilgan ehtirom ramziga aylandi. Abu Lays Samarqandiyning zamondoshlari unga "Imom ul-xuda" ya'ni "To'g'ri yo'l imomi" degan yuksak nom beradilar. [12]

Somoniylar haqidagi ma'lumotlar mog'ullar davriga qadar O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qimmatli bo'lgan arab va fors tillarida yozilgan deyarli barcha manbalarda IX-XII asrlarda yozilgan tarixiy-geografik va biografik asarlarda hamda boshqa manbalarda keltirilgan. Somoniylar sulolasi tarixiga bag'ishlangan biroq bizgacha yetib kelmagan asarlarda xususan, "Tarixi Oli Somon" (Somoniylar xonadoni tarixi) nomli maxsus asar ham mavud. [13]

Somoniylar davlati haqidagi qimmatli manbalarni mog'ullar davridan keyin yaratilgan asarlarda ham uchratish mumkin. Ushbu asarlar bizgacha yetib kelmagan manbalardan olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shunday asarlardan biri Mirxondning "Ravzat us-safo" [14] asarida Somoniylar hukmronligi tarixiga oid alohida bo'lim bag'ishlangan. Somoniylar sulolasi haqida boy ma'lumotlar hujjat manba hisoblanga numizmatik materiallar ham mavjud bo'lib, ular yozma manbalardagi ma'lumotlarni anchagina to'ldiradi va aniqliklar kiritadi.

O'rta Osiyoning qadimiy maskanlarida xususan Buxoro, Samarqand, Varaxsha, Termiz, Balx, Marv, Niso va boshqa shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan IX-X asrlarga oid numizmatik ma'lumotlar ham Somoniylar tarixini o'rganishda, muhim tarixiy materiallar bo'lib xizmat qildi.

Keyingi davrlarda XX asr tarixshunosligida Somoniylar davlati tarixi to'g'risida V. Bartold, E.A. Davidovich, N. Negmatov, A. Semyonov, E. Sumbaur, S. Len-Pul, K. Bosvort asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Somoniylar davlati tarixiga oid manbalarning ko'pligi va ulardagi ma'lumotlarning aniqligi Somoniylar davlatida ilm fan olimlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilganligidan dalolat beradi. Yuqorida nomlari qayd etib o'tilgan barcha tarixiy manbalardagi ma'lumotlar umuman bir-birini inkor etmaydi. Aksincha ulardagi ma'lumotlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit bir tarixiy ma'lumotlarni ochib berishda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-bakr-narshaxiy-899-959/>
(23.01.2024-y.)
2. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-bakr-narshakhi>. (25.01.2024-y.)
3. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т.: Фан, 1996. –Б. 120.
4. <http://uzbekistan-geneva.ch/abu-bakr-narshaxiy-o-rta-osiyo-tarixida-chuqur-iz-qoldirgan-olim.html>. (25.01.2024-y.)
5. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy/>.
(26.01.2024-y.)
6. Ибн ал-Асир. Ал – Камил фит тарих. –Т.: Цюрих, 2005. –Б. 604.
7. <https://xojabuxoriy.uz?p=104&lang=uz>. (27.01.2024-y.)
8. Homidiy H. Daholar davrasi. –Т. О'qituvchi. 2011. –В. 352.
9. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/320>. (28.01.2024-y.)
10. <https://milliycha.uz/botiniylar/> (29.01.2024-y.)
11. <https://zarnews.uz/uz/post/>. (29.01.2024-y.)
12. <https://zarnews.uz/uz/post/abu-lays-samarqandiy-haqiqatlari>.
(28.01.2024-y.)
13. Камолиддин Ш. Исломил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholar press, 2017. –В. 93.
14. <https://oriftolib.uz/807>. (30.01.2024-y.)